

**O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO  
STANDARTLARI (MHXS)GA O'TISH BOSQICHLARI  
VA UNING JORIY HOLATI**  
(“Chorvoq turistik-rekreatsioon zonasi Direksiyasi” DUK misolida)

***Botirov Feruz Shavkatovich***

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada xalqaro standartlar (IFRS) asosida aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy hisobotlarni tayyorlash jarayoni tahlil qilingan. Moliyaviy hisobotlar aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy holati va faoliyatini ko'rsatishda muhim ahamiyatga ega. Xalqaro standartlarni qo'llash hisobotlarning shaffofligi va taqqoslanuvchanligini oshiradi, bu esa investorlar, aktsiyadorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun muhimdir.

Ijobiy tomoni shundaki, xalqaro standartlar global miqyosda moliyaviy hisobotlarni bir xil tushunishni ta'minlaydi va investorlarning ishonchini oshiradi. Salbiy tomondan, ushbu standartlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha xarajatlar va resurslar hisobga olinadi.

Shuningdek maqolada xalqaro standartlarga muvofiq moliyaviy hisobotlarni tayyorlash jarayonini takomillashtirish bo'yicha takliflar berilgan. Ular orasida ta'lim va kadrlar tayyorlash, moliyaviy nazoratni kuchaytirish, texnologiyalarni joriy etish kabi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

**Kalit so'zlar:** Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, aktsiyadorlik jamiyatlari, Shaffoflik, Investor ishonchi, Solishtirilishi, Tahlil, Moliyaviy nazorat, Global iqtisodiy integratsiya balans, moliyaviy hisobot.

**Annotation:** In this article, the process of preparing financial statements in joint-stock companies based on international standards (IFRS) is analyzed. Financial reports are important in showing the financial status and activities of joint-stock companies. Application of international standards increases the transparency and comparability of reports, which is important for investors, shareholders and other interested parties.

During the analysis, the positive and negative aspects of the transition to international standards are considered. On the positive side, international standards provide a uniform understanding of financial statements globally and increase investor confidence. On the negative side, the additional costs and resources required to implement these standards are considered.

In addition, proposals for improving the process of preparing financial statements in accordance with international standards are given in the dissertation. Among them, measures such as education and personnel training, strengthening of financial control, introduction of technologies are being implemented.

**Key words:** International financial reporting standards, joint-stock companies, Transparency, Investor confidence, Comparability, Analysis, Financial control, Global economic integration, balance sheet, financial reporting.

### **Kirish**

Aksiyadorlik jamiyatlari iqtisodiy tizimning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ularning moliyaviy hisobotlari mamlakat iqtisodiyotining shaffofligini va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Moliyaviy hisobotlar aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy holatini, faoliyatini va strategik rejalashtirish jarayonlarini aks ettiradi. Ushbu hisobotlar orqali investorlar, aksiyadorlar va boshqa manfaatdor tomonlar kompaniyaning moliyaviy natijalarini baholash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) moliyaviy hisobotlarni tayyorlash jarayonida muhim ahamiyatga ega. Ular moliyaviy ma'lumotlarning shaffofligini oshiradi, mahalliy va xorijiy investorlar va xalqaro bozorlar o'rtasida moliyaviy ko'rsatkichlarni bir biriga solishtirish imkoniyatini yaratadi.

Biroq, xalqaro standartlarga o'tish jarayoni aksiyadorlik jamiyatlari uchun bir qator qiyinchiliklar va qo'shimcha xarajatlarni keltirib chiqaradi. Bu, o'z navbatida, hisobotlarning sifat darajasini va ular asosida qabul qilingan qarorlar ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, ushbu tadqiqot ishi dolzarb bo'lib, moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlash jarayonini o'rganish, tahlil qilish va uni yangi inovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish yo'llarini izlash muhim ahamiyatga ega.

“Chorvoq turistik-rekreatsioon zonasi Direksiyasi” DUK misolida, moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga muvofiq transformatsiya jarayonini amalga oshirish, tahlili qilsih va uni takomillashtirish, nafaqat jamiyat uchun, balki O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun zarurdir. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, xalqaro standartlarga mos keluvchi moliyaviy hisobotlar, nafaqat aksiyadorlik jamiyatining raqobatbardoshligini oshiradi, balki O'zbekistonning global bozor iqtisodiyotiga integratsiyasini ham qo'llab-quvvatlaydi. Buning natijasida, aksiyadorlik jamiyati nafaqat iqtisodiy muvaffaqiyatga erishadi, balki o'zining ijtimoiy va ekologik mas'uliyatini ham bajara oladi.

### **Mavzuning dolzarbligi**

Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga muvofiq ravishda tayyorlash va taqdim etish jarayonlarini yaxshilash, bu orqali aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy shaffofligini, ishonchliligini va xalqaro investorlar uchun jozibadorligini oshirish.

1. **Moliyaviy hisobotlarning sifatini oshirish:** "Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiqlik, moliyaviy hisobotlarning aniqligi, ishonchliligi va foydalanuvchilar uchun tushunarli bo'lishini ta'minlaydi."

Ushbu maqsad orqali, aksiyadorlik jamiyatlari o'z faoliyatlari haqida aniq va to'liq ma'lumotlar taqdim etish orqali investorlar va boshqa manfaatdor tomonlarning ishonchini oshirishni maqsad qiladi.

2. **Shaffoflikni ta'minlash:** "Moliyaviy hisobotlar shaffof bo'lganda, investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun ishonchli ma'lumot taqdim etiladi." Shaffoflik, aksiyadorlik jamiyatining o'z faoliyatini ochiq yuritishini, moliyaviy natijalarini hamda risklarini aniq ko'rsatishini anglatadi. Bu esa investitsiya qarorlarini qabul qilishda muhim rol o'ynaydi.

Vazifalari:

1. **Tahlil jarayonini o'rganish:** "Chorvoq" turistik-rekreationsion zonasi Direksiyasi DUK o'z moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlar asosida tayyorlash jarayonini chuqur o'rganishlari kerak. Bu vazifa, aksiyadorlik jamiyatlarining hisobot tayyorlash jarayonlarini tahlil qilish va o'zaro taqqoslashni o'z ichiga oladi. Bunda standartlarga muvofiqlik darajasi, hisobotlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'liqligi va aniqligi baholanadi.

2. **Muammolarni aniqlash:** "Xalqaro standartlarga rioya qilishdagi muammolarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha amaliy choralar ko'rish zarur." Hisobotlarni tayyorlash jarayonida uchraydigan muammolar, xususan, texnik cheklovlar, malakali xodimlar yetishmasligi yoki standartlarning noaniq talablari bo'lishi mumkin. Bunday muammolarni aniqlash va yechish orqali hisobotlarning sifatini yaxshilash mumkin.

## METODOLOGIYA

Ma'lumotlarni to'plash jarayoni tadqiqotning asosiy komponentlaridan biridir. Korxonalarda moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlash va tahlil qilishda, birlamchi va ikkinchi ma'lumotlar, turli usullar yordamida to'plandi hamda dissertatsiya ishi uchun qanday ma'lumotlar zarurligi aniqlandi, ya'ni tanlangan ob'ekt – "Chorvoq turistik-rekreationsion zonasi Direksiyasi" DUKning hisobotlari sinchiklab o'rganilib, tegishli xulosa chiqarildi. Chiqarilgan xulosalar asosida reja tuzildi. Hamda uni uslubiy jihatdan takomillashtirish bo'yicha fikrlar shakllantirildi.

## II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.

Korxonalarda amaldagi "Buxgalteriya hisobi siyosati" MHXS asosida to'g'ri va o'z vaqtida shakllantirilishi va uning to'liq amalga oshirilishi yuqoridagi ko'rsatmalar asosida amalga oshirilishi muqarrar. Shu sababli xalqaro buxgalteriya standartlari talablari asosida korxonalarining yillik moliyaviy hisobotlarini tuzish uchun "Korxonaning buxgalteriya hisobi siyosati"ni qayta ko'rib chiqish va ishlab chiqish zarurati paydo bo'lmoqda.

“Buxgalteriya hisob siyosati” tushunchasining xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirilishi natijasida u aksiyadorlik jamiyatlarida buxgalteriya hisobini to‘g‘ri tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Chunki korxonalarining aksiyalarini birjalar orqali xorijiy investorlarga sotishda moliyaviy hisobot shakllarini xalqaro amaliyotga mos ravishda tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun hisobchilar xalqaro buxgalteriya hisobi, xalqaro moliyaviy hisobning asosiy tamoyillari va uslubiy asoslari haqida kerakli tushuncha va ko‘nikmaga ega bo‘lishi kerak. Xalqaro buxgalteriya hisobi va xalqaro moliyaviy hisob aksiyadorlik jamiyatlari mablag‘larining harakati va ularning shakllanish manbalarini ko‘rsatadi. U aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini yaqindan va uzluksiz monitoringini ta‘minlash, nazorat natijasida olingan ma‘lumotlarni o‘lchash va qayd etish hamda ularni yagona o‘lchovda, ya‘ni pulda umumlashtirish tizimidan iborat. Korxonaning aktiv va passiv operatsiyalari buxgalteriya hisobi ma‘lumotlaridan foydalangan holda rejalashtiriladi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

“Chorvoq turistik-rekreatsioon zonasi Direksiyasi” DUK O‘zbekiston iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, temir yo‘l transportini boshqarish va rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi. Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga mos ravishda tayyorlash, jamiyatning moliyaviy shaffofligini oshirish, investorlar ishonchini kuchaytirish va global bozorlar bilan integratsiya qilishda muhim ahamiyatga ega.

“Chorvoq” turistik-rekreatsioon zonasi Direksiyasi DUK, MHXSni qo‘llash va takomillashtirish jarayoni, moliyaviy shaffoflikni oshirish, raqobatbardoshligini kuchaytirish va global bozorlar bilan integratsiyani ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun kadrlar malakasi, texnologik yangilanishlar va moliyaviy nazorat jarayonlarini takomillashtirish zarur. Taklif etilgan chora-tadbirlar orqali kompaniya kelgusida yanada muvaffaqiyatli bo‘lishi va xalqaro bozorda o‘z o‘rnini mustahkamlashi mumkin.

1-Jadval: “Chorvoq” turistik-rekreatsioon zonasi Direksiyasi” DUK, ning 2023-2024 yillar balans hisobotining aktiv moddalarini ko‘rsatkichlari.

| Ko'rsatkich               | Yil boshidagi<br>qiymat<br>(mln so'm)<br>01.01.2023 | Yil oxiridagi<br>qiymat<br>(mln<br>so'm)<br>01.01.2024 | Mutloq farq<br>(mln so'm) | O'sish<br>surati (%) |
|---------------------------|-----------------------------------------------------|--------------------------------------------------------|---------------------------|----------------------|
| <b>Balans jami aktivi</b> | 38,914,063                                          | 40,206,981                                             | 1,292,919                 | 103.32               |
| 1.Uzoq muddatli aktivlar  | 26,107,347                                          | 24,331,991                                             | -1,775,356                | 93.20                |
| 2. Joriy aktivlar         | 12,806,715                                          | 15,874,990                                             | 3,068,275                 | 123.96               |
| 3. Zaxira va xarajatlar   | 9,198,258                                           | 9,250,877                                              | 52,620                    | 100.57               |
| 4.Debitorlik qarzlari     | 3,093,813                                           | 6,333,091                                              | 3,239,278                 | 204.70               |

| Ko'rsatkich                              | Yil boshidagi<br>qiymat<br>(mln so'm)<br>01.01.2023 | Yil oxiridagi<br>qiymat<br>(mln<br>so'm)<br>01.01.2024 | Mutloq farq<br>(mln so'm) | O'sish<br>surati (%) |
|------------------------------------------|-----------------------------------------------------|--------------------------------------------------------|---------------------------|----------------------|
| 5. Pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlar | 506,707                                             | 282,412                                                | -224,296                  | 55.73                |

#### Gorizontall Tahlil Natijalari:

- Balans jami aktivlari 1,292,919 mln so'mga o'sdi (103.32%).
- Uzoq muddatli aktivlar 1,775,356 mln so'mga kamaydi (93.20%).
- Joriy aktivlar 3,068,275 mln so'mga o'sdi (123.96%), bu joriy aktivlarning o'sishi bilan bog'liq.
- Debitorlik qarzlari 204.70% o'sish ko'rsatmoqda, bu kompaniyaning qarz olish faoliyatini ko'rsatadi.
- Pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlar kamaygan, bu 55.73% o'sish sur'ati bilan ko'rsatadi.
- 2-Jadval "Chorvoq" turistik-rekreationsion zonasi Direksiyasi" DUK, ning 2023-2024 yillar balans hisobotining passiv moddalari ko'rsatkichlari.

| Passiv modda                 | Yil boshi<br>(01.01.2023),<br>mln. So'm | Yil oxiri<br>(01.01.2024),<br>mln. So'm | Mutloq farq,<br>mln. So'm | O'sish<br>surati, % |
|------------------------------|-----------------------------------------|-----------------------------------------|---------------------------|---------------------|
| Balans passivi jami          | 38,914,062.63                           | 40,206,981.21                           | 1,292,918.58              | 3.32                |
| O'z mablag'lari manbalari    | 15,968,085.91                           | 13,521,945.75                           | -2,446,140.16             | -15.32              |
| Majburiyatlar                | 22,945,976.72                           | 26,685,035.46                           | 3,739,058.74              | 16.30               |
| Uzoq muddatli majburiyatlar  | 20,426,738.22                           | 23,584,127.70                           | 3,157,389.48              | 15.46               |
| Qisqa muddatli majburiyatlar | 2,519,238.50                            | 3,100,907.76                            | 581,669.26                | 23.09               |

Bu jadval natijalaridan ko'rinib turibdiku O'z mablag'lari manbalari 2023 yilda 15,968,085.91mln so'm bo'lsa, 2024 yilda 13,521,945.75mln so'm bo'lgan. Bu ko'rsatkich 15,32%ga kamaygan.

3-Jadval: “Chorvoq turistik-rekreatsioon zonasi Direksiyasi” DUK ning 2023-2024 yillar balans hisobotining passiv moddalari ko'rsatkichlari.

| Passiv modda                        | Yil boshi (01.01.2023), % | Yil oxiri (01.01.2024), % |
|-------------------------------------|---------------------------|---------------------------|
| <b>Balans passivi jami</b>          | 100%                      | 100%                      |
| O'z mablag'lari manbalari           | 41.03%                    | 33.63%                    |
| Majburiyatlar                       | 58.97%                    | 66.37%                    |
| <b>Uzoq muddatli majburiyatlar</b>  | 52.49%                    | 58.66%                    |
| <b>Qisqa muddatli majburiyatlar</b> | 6.47%                     | 7.71%                     |

- Gorizontall tahlilda ko'rsatilganidek, umumiy balans passivi o'sdi, lekin o'z mablag'lari pasaydi.
- Vertikal tahlilda esa majburiyatlar ulushi o'sib, o'z mablag'lari ulushi kamaydi.
- O'z mablag'lari: 2023 yildan 2024 yilga o'tish jarayonida pasaygan, bu moliyaviy barqarorlikka ta'sir qilishi mumkin.
- Majburiyatlar: Umumiy majburiyatlar o'sdi, ayniqsa uzoq muddatli majburiyatlar. Bu kompaniya moliyaviy xavfini oshirishi mumkin, lekin shuningdek, investitsiya faoliyatini ham ko'rsatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

“Chorvoq” turistik-rekreatsioon zonasi Direksiyasi” DUK ning hisobotlarini xalqaro standartlarga o'tkazish va takomillashtirish jarayonida quyidagi taklif va tavsiyalarni ko'rib chiqish mumkin:

### 1. Hisobotlarni Xalqaro Standartlarga Moslashtirish

- IFRS Standartlarini O'rganish: IFRS (Xalqaro Moliyaviy Hisobot Standartlari) asosida hisobotlarni tayyorlashni boshlash. Ularning har bir talabi va qoidalarini o'rganish va tatbiq qilish.

- Moliyaviy Hisobotlarni Modernizatsiya Qilish: Hisobotlarning tarkibini va formatini xalqaro standartlarga moslashtirish. Masalan, moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot (Balance Sheet), foyda va zarar to'g'risidagi hisobot (Income Statement), naqd pul oqimlari to'g'risidagi hisobot (Cash Flow Statement) va aksiyadorlar kapitali to'g'risidagi hisobot (Statement of Changes in Equity) kabi hisobotlarni yaxshilash.

### 2. Texnologiya va Dasturiy Ta'minotni Takomillashtirish

- Hisobotlar Dasturiy Ta'minotini Yangilash: Moliyaviy hisoboti tayyorlash va monitoring qilish uchun ilg'or dasturiy ta'minotlarni joriy qilish. Masalan, ERP tizimlarini (Enterprise Resource Planning) qo'llash.

- Ma'lumotlar Integratsiyasi: Tashkiliy tuzilma va moliyaviy ma'lumotlarni integratsiya qilish orqali hisobotlar tayyorlash jarayonini avtomatlashtirish.

### 3. Kadrlarni Malakasini Oshirish

- Treninglar va Sertifikatlash: Xodimlarga xalqaro moliyaviy standartlar bo'yicha treninglar o'tkazish va sertifikatlash. Auditorlik va hisobotlar bo'yicha tajribali mutaxassislarni jalb qilish.

- Tajriba Almashish: Xalqaro tajribaga ega moliyaviy mutaxassislar va auditorlar bilan maslahatlashish va tajriba almashish.

### 4. Moliyaviy Hisobotlar Shaffofligini Ta'minlash

- Hisobotlar Shaffofligini Oshirish: Hisobotlar muhim moliyaviy ko'rsatkichlarni aniq va shaffof ko'rsatishi kerak. Ma'lumotlar to'g'riligini va ishonchliligini ta'minlash uchun ichki nazorat tizimini mustahkamlash.

- Audit Qaydlarini Yaxshilash: Ichki va tashqi audit jarayonlarini muntazam ravishda o'tkazish va auditorlik xulosalariga asoslanib, hisobotlarni takomillashtirish.

### 5. Investorlar Bilan Muloqotni Kuchaytirish

- Investorlar uchun Hisobotlar Tayyorlash: Investorlar uchun hisobotlarni aniq, tushunarli va qiziqarli tarzda taqdim etish. Moliyaviy ma'lumotlar va prognozlar to'g'risida batafsil ma'lumot berish.

- Investorlar Bilan Doimiy Aloqa: Investorlar bilan doimiy aloqada bo'lish, ularning savollariga tez va aniq javoblar berish.

### 6. Risklarni Boshqarish

- Risklarni Baholash: Hisobot tayyorlash jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish va ularni kamaytirish bo'yicha choralar ishlab chiqish.

- Kontrollarni Kuchaytirish: Hisobotlarning sifatini ta'minlash uchun ichki nazorat va monitoring tizimlarini kuchaytirish.

### 7. Ommaviy Axborot Vositalarida Faoliyatni Kengaytirish

- Ma'lumotni E'lon Qilish: Ommaviy axborot vositalarida hisobotlar va moliyaviy natijalarni e'lon qilish orqali kompaniyaning shaffofligini saqlab qolish.

- PR va Marketing Strategiyalarini Ishlab Chiqish: Investorlarni jalb qilish uchun kompaniyaning ijobiy imijini yaratish va uni targ'ib qilish.

### 8. Davriy Takomillashtirish

- Kompaniya Amaliyotini Takomillashtirish: Davriy ravishda hisobotlarni baholash va ularni xalqaro standartlarga mos keladigan tarzda rivojlantirish.

- O'zgarishlarni Tashkillashtirish: Xalqaro standartlardagi o'zgarishlarni doimiy ravishda tahlil qilib, hisobotlarni yangilash jarayonini amalga oshirish.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jo'raev N.Yu. (1998). Korxonaning hisob siyosati. O'quv qo'llanma. - T.: 1998., 250 b.
2. Karimov (2023) "Xalqaro standartlar yordamida aksiyadorlik jamiyatlari

moliyaviy natijalarini taqqoslash va raqobatbardoshlikni oshirish” 2023 y.

3. Ibragimov A.K (2010), Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida banklarda buxgalteriya hisobi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, Moliya-2010, 272b.

4. Ibragimov A.K (2016). Banklarda buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlari. O‘quv qo‘llanma. BMA «Moliya», 2016 y. -370 b.

5. Ibragimov A.K (2019). Tijorat banklarida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O‘quv qo‘llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2019

6. Ibragimov A.K (2019). Banklarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. Darslik. (guvxoasi asosida). TMI «Iqtisod-Moliya», 2019 y.

7. Rizaev N. Ismatxo‘jaeva I. (2020). Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida banklarida hisob siyosatini takomillashtirish. Logistika va iqtisodiyot. elektron-ilmiy jurnali. - Toshkent, 2020. №1, 70-80 B.

8. <http://www.norma.uz>.

9. <http://www.mf.uz>.

10. <http://www.lex.uz>.